



“PROBLEMS IN LIVESTOCK FARMING IN UZBEKISTAN AND REFORMS TO ADDRESS THEM (2017–2020)”

Bekali Bahodirovich Muyiddinov

History Lecturer, Asia International University

bekalimuhiddinov96@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Livestock, Uzbekistan, laws, decisions, food, Cabinet of Ministers, regions, income, shortcomings, analysis, cattle breeding, sheep breeding, cultivated land.

Abstract: The article covers the state of the livestock sector in Uzbekistan, the dynamics of livestock production, problems in livestock farming, and reforms aimed at solving them.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIKDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHDAGI ISLOHOTLAR (2017-2020-YILLARDA)

Bekali Bahodirovich Muyiddinov

Osiyo xalqaro Universiteti, Tarix fani o‘qituvchi

bekalimuhiddinov96@gmail.com

Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Chorvachilik, O‘zbekiston, qonunlar, qarorlar, oziq-ovqat, Vazirlar Mahkamasi, hududlar, daromad, kamchiliklar, tahlil, qoramolchilik, qo‘ychilik.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston chorvachilik sohasining holati, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish dinamikasi, chorvachilikdagi muammolar va ularning yechimi qaratilgan islohotlar yoritilgan.

«ПРОБЛЕМЫ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И РЕФОРМЫ ПО ИХ УСТРАНЕНИЮ (2017–2020 ГГ.)»

Бекали Бахадирович Муюддинов

Преподаватель истории, Азиатский международный университет

www.supportscience.uz/index.php/ojss

bekalimuhiddinov96@gmail.com

Бухара, Ўзбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Животноводство, Узбекистан, законы, постановления, продовольствие, Кабинет министров, территории, доходы, недостатки, анализ, скотоводство, овцеводство, пахотные земли.

Аннотация: В статье освещается состояние животноводческой отрасли Узбекистана, динамика производства животноводческой продукции, проблемы животноводства и реформы, направленные на их решение.

Kirish. O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va uning asosiy qismi hisoblangan chorvachilik tarmog‘i bugungi kunda aholining oziq – ovqat, sut mahsulotlarini yetkazib beruvchi, ularni ish bilan ta‘minlovchi va iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlashda asosiy omillardan biridir. O‘zbekiston mustaqillika erishgandan so‘ng qishloq xo‘jaligida tubdan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni boshladi. Nega chorvachilik mahsulotlari keyingi yillarda deyarlik kam o‘smoqda degan savol tug‘iladi. Bunga asosiy sabab bizning xo‘jaliklarimizda chorvachilikni rivojlantirish uchun sharoit va imkoniyat yo‘qligidan emas, balki chorvachilikga keyingi yillarda e‘tibor susaytirilganligi, nohiya va xo‘jalik rahbarlari, mutaxassislari bu muhim sohani o‘z holiga tashlab, mas‘uliyatsizlik bilan qaraganliklaridadir. Chorvachilikni rivojlantirishning eng asosiy omillaridan mustahkam ozuqa bazasidir. Keyingi yillarda chorva biri bu mollari uchun ozuqa ekinlari ekish, ulardan yuqori hosil olish, ozuqa sifatini yaxshilash borasida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilib kelinmoqda. Bu masalada 2017-2020-yillar oralig‘ida chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta Farmoni, 20 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 35 ta qarori qabul qilinib, ularda sohani rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadlar va ustuvor vazifalar belgilandi .

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani yaratishda Mustaqillik yillarida chorvachilik sohasining rivojlanishi, taraqqiy etishi va muammolari mavzusida Sh.Jumayeva tomonidan Surxon vohasi misolida. S.Qodirova tadqiqotlarida, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog‘i rivojlanishiga ta‘sirining asosiy xususiyatlari mavzusida N.Nurmatov tadqiqotlarida, Keyinchalik Sh.Axmedov tomonidan O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish tarixi (1991 -2022) yillar nomli avtoreferatlari o‘rganilgan.

2021-yil 3-mart kuni “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5017-sonli qarori, 2022-yil 8-fevraldagi “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-121-sonli qarorlarining qabul qilinishi soha rivojiga ijobiy ta‘sir

ko'rsatmoqda., O'zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining ma'lumotnomasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari orqali ushbu maqola mavzusi yuzasidan alohida o'rganildi.

Metodologik asoslari. Metodologik asoslar bo'limida tarixiy-muqoyasali, arxeologik, kommunikativ va qiyosiy yondashuvlar asosida chorvachilikdagi kamchiliklarni o'rganilish jihatlari keltirildi. Ushbu metodlar orqali chorvachilik sohalarini mustaqillik yillarida muammolarga yechim berish, tabiat ta'siri va hududiy farqlari aniqlangan.

Natijalar. Birgina 2018-yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 21,9 trln. so'mni yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,8 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan go'shtning umumiy hajmidagi eng yuqori ulush Toshkent viloyatiga (14,3 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Samarqand (13,0 %), Buxoro (9,6 %), Qashqadaryo (8,7 %) va Andijon (8,3 %) viloyatlarida qayd etildi. Go'shtning umumiy hajmida eng past ulush Sirdaryo viloyati (2,9 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,2 %) da kuzatildi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 26 318,9 mlrd. so'mni yoki 2020-yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil qildi. Jami etishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,7 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan go'shtning umumiy hajmidagi eng yuqori ulush Toshkent viloyatiga (14,0 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Samarqand (12,6 %), Buxoro (9,7 %), Qashqadaryo (8,7 %) viloyatlarida qayd etildi. Go'shtning umumiy hajmida eng past ulush Sirdaryo viloyati (2,8 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,2 %) da kuzatildi.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Nasriddin Xalilov bu masalada quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi chorvachilikning muhim ozuqa manbai bo'lgan yaylov yerlarining hosildorligi uncha yuqori bo'lmaydi, yaxshi bo'lgan yillari gektaridan 3-4 sentnergacha hosil olish mumkin, xolos. Afsuski oxirgi yillarda yog'ingarchilik yildan-yil kamayib bormoqda. Misol uchun, avval Qarnoqcho'lda 85 turdagi o'simlik uchragan bo'lsa, bugungi kunga kelib, 4-5 xil turdagi o'simlikni uchrata olasiz, xolos. Ustiga-ustak bu o'simliklarning aksari jonivorlar ozuqasi uchun yaramaydi, chorva yesa zaharlanadi. Holat shu darajaga kelib qolgan ekan, yaylovlarda ozuqaviy o'simliklarni ko'paytirish masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Shuning uchun birinchi yo'nalishda ozuqaviy qiymati yuqori va hosilbop o'simlik urug'larini ko'paytirish va yaylovlarga ekish kerak va shu orqali yaylov hosildorligini oshirish mumkin. Qodirova.S o'z tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi O'zbekiston iqlimining

keskin o'zgarib borayotgani sababli yer unumdorligi pasayib, sug'orish qiyinlashmoqda. Chorva hayvonlariga oziq – ovqatlarni yetkazib berishda O'zbekistonga import bo'ladigan bo'lsa, bojxona to'lovlari fermer xo'jaliklari uchun qimmatga tushishi mumkin. O'zbekiston sharoitidagi iqlimdan kelib chiqqan holda yer unumdorligini oshirish yoki oziq – ovqatlarini import qilishda bojxona to'lovlari kamaytirish orqali bu muammolarni yechish mumkin va chorva nasilchiligi og'ir ahvolda shuning uchun chorcachilik uchun dori vositalarini sifatli va kattaroq hajmda ishlab chiqarish, ularning narxlarini fermer xo'jaliklari uchun arzonroq bo'lishi kerak degan masalalarni ilgari surmoqda.

Muhokama. Chorcachilik bilan shug'ullanayotgan fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun 2019-yil 1-yanvardan boshlab 2022-yil 1-yanvarga qadar asosiy faoliyat turi bo'yicha foyda solig'i (tijorat banklarida joylashtirilgan mablag'lardan olingan foizlardan tashqari), mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 50 foiz miqdorida qo'llaniladi. 2020-yilgi qarorga ko'ra chorva mollarni suv bilan ta'minlashda og'riqli hududlarga e'tiborni yanada qaratish masalasi ham aytib o'tildi birgina Qashqadaryoda viloyatida pichanzor va yaylov yerlarda 2018-2020-yillarda jami 30ta yangidan qaziladigan quduqlar chiqarish rejasi ishlab chiqildi.

Respublikaning barcha hududlarida chorva mollarning go'shti va sutiga bo'lgan ehtiyojni qoplash maqsadida 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2023-yil 31-dekabrga qadar: qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan chorcachilik xo'jaliklariga — o'z xo'jaliklarida va aholi xonadonlari bilan birgalikda kooperatsiya usulida yetishtirilib, go'sht uchun realizatsiya qilingan yirik va mayda shoxli qoramollar tirik vaznining har bir kilogrammi uchun subsidiyaning miqdori 2 000 so'mdan 4 000 so'mga hamda sutning har bir litri uchun 200 so'mdan 400 so'mga oshiriladi. Bunda, subsidiya qo'shilgan qiymat solig'idan vaqtinchalik ozod qilish bo'yicha imtiyoz amalda bo'lgan davr uchun ham to'lashini belgilandi, chorcachilik xo'jaliklari tomonidan kredit va lizing shartlari asosida xarid qilingan qishloq xo'jaligi texnikalari kredit va lizing foizi xarajatlarining 10 foiz punktidan ortiq qismi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan respublika budjeti hisobidan qoplab berilishi belgilandi, ozuqa ekin yer maydonlarida yomg'irlatib va tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etgan chorcachilik xo'jaliklariga uning har bir gektari uchun 8 million so'm miqdorida respublika budjeti hisobidan belgilangan tartibda subsidiya ajratilishi hisobga olindi, gidroponika usulida chorva mollariga ozuqa yetishtirish uskunalari xarid qilish xarajatining 20 foizi respublika budjeti hisobidan qoplab beriladi. Bunda, mazkur uskuna qiymatining 100 million so'mdan oshmagan qismi qoplanishi qarorda belgilab olindi.

Respublikamizda birgina chorvachilikning qoramolchilik tarmoqlari o'tgan yillarga nisbatan qoramollar 2,6 foiz, shundan sigirlar 2,3 foiz o'sish kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar kesimida qoramolchilikda 2020-yil 7,0 %, 2021-yil 6,8 %, 2022-yil 7,6 % shundan sigirlar 2020-yil 5,6 %, 2021-yil 4,7 %, 2022-yil 12,5 foiz o'sish kuzatilgan. Respublikamizda ishlab chiqarilgan qoramolchilik tarmog'idan olingan mahsulotlarni yetishtirishda o'tgan yillarga nisbatan jami yetishtirilgan go'sht 3,7 foiz, jami sog'ib olingan sut 3,4 foiz o'sish kuzatilgan. Bu ko'rsatkich fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar kesimida jami yetishtirilgan go'sht 2018-yil 16,0%, 2019-yil 9,6 %, 2020-yil 22,1 % jami sog'ib olingan sut 2018-yil 11,9 %, 2019-yil 12,6 % va 2020-yil 14,6 % oshgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi 2020-yil kesimida dehqon va uy xo'jaliklari tomonidan yetishtiriladi. Qora mollarning 91.8 foizi aholi xonadonlariga, faqatgina 8,2 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Chorvalarning turini va sonini ko'paytirish, mahsuldorligini oshirishda muammolar mavjud. Bu muammolar chorva mollarining tabiiy ko'payishi, mahsuldor zotlilarni ko'paytirish, chetda olib kelish, yem xashakning qimmatligi va yetishmasligi bilan bir vaqtda, tabiatning qanday kelishiga ham bog'liq hisoblanadi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida chorvachilikka turlicha e'tibor qaratilib kelinmoqda. Dastlabki yillarda viloyatlar xo'jaliklarida mustaqil ravishda javdar, tariq, raps va perko ekinlari ekilar edi, ular ozuqa rasionlarini erta bahorda to'ldirib, qo'shimcha mahsulot olish imkoniyatini tug'dirar edi. Ana shu ekinlarga keyingi 4-5 yil mobaynida e'tibor berilmay qo'yildi. Qaysi xo'jalik oraliq ekinlarini yetarlik darajada eksa, o'sha xo'jalikda birinchi o'rim hisobidan beda pichani tayyorlash imkoniyati tug'iladi. Bunday xo'jaliklar erta bahorda qishdan arriqlab chiqqan sigirlarni va boshqa mollarni ko'k o't bilan to'yguncha boqish va qolganini g'amlab olib qoyishga zamin yaratadilar.

Mutaxassislarning fikricha makkajo'xorining donini pishirtirib olib, uning poyasini silosga bostirilsa, uning ozuqa birligi butunlay yo'qotiladi. Shuning uchun ozuqa uchun ekiladigan makkajo'xorini doni bilan sut-moy pishirlikda silosga bostirish maqsadga muvofiq, ozuqa uchun ekiladigan lavlagi va beda kabilar sut mahsulotini oshirishda asosiy omildir. Shuning uchun bu ozuqalarga alohida e'tibor bilan qarab, eng yuqori hosil berasigan yaxshi yerlarni ajratish zarur. Har bir bosh sigirga o'rtacha mavsumiy 4-4,5 tonna lavlagi tayyorlash kerak. Shundagina biz mollar organizmida oqsil va qand moddasi muvozanatni ta'minlaymiz, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Nasriddin Xalilov ta'biri bilan aytganda Yaylov

yerlari hosildorligini oshirish bo'yicha ilmiy ishlar qilinmayapti, deb ayta olmayman, to'g'ri, Qorako'lhilik, Cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti olimlari bu borada ish olib boryapti, lekin bu tadqiqotlar juda katta maydonlarda joriy qilinmayapti. Qolaversa, ilmiy jamoatchilik oldida noqulay ob-havo sharoitiga chidamli, sho'rga chidamli, hosildor ekin navlarini yaratish vazifasi ham turibdi. Boshqa tomondan cho'l yaylovlarini yaxshilash qum bo'ronlari, shamol natijasida sho'r tuzlarning boshqa joylarga tarqalishi, ekologiya buzilishining oldini oladigan muhim tadbir ham hisoblanadi.

1. Buxoro viloyatining tabiiy-geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, chorvachilikni hududiy ixtisoslashtirish tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bunda cho'l va yaylov hududlarida qorako'lhilik, qo'ychilik, tuyachilik va yilqichilikni, sug'oriladigan hududlarda esa qoramolchilik, parrandachilik va sut yo'nalishidagi xo'jaliklarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish lozim.

2. Mahalliy ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida qurg'oqchilikka va sho'rlanishga chidamli ozuqabop ekinlarni ko'paytirish tavsiya etiladi. Buxoro viloyatining tabiiy-iqlim sharoitiga mos yem-xashak ekinlarini tanlash, ularning hosildorligini tajriba asosida aniqlash va ishlab chiqarishga keng joriy etish chorva mahsuldorligini oshirish imkonini beradi.

3. Naslchilik ishlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish kerak. Viloyatning tabiiy-iqlim sharoitiga mos, kasalliklarga chidamli va yuqori mahsuldor chorva zotlarini ko'paytirish, sun'iy urug'lantirish xizmatlarini kengaytirish hamda naslchilik xo'jaliklari faoliyatini ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda olib borish tavsiya etiladi.

4. Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini hududlarning o'zida ko'paytirish taklif etiladi. Go'sht, sut, jun, qorako'l terisi va boshqa mahsulotlarni xomashyo sifatida sotishdan ko'ra, ularni qayta ishlab tayyor mahsulotga aylantirish orqali qo'shimcha qiymat yaratish va mahalliy aholi bandligini oshirish mumkin.

5. Chorvachilikka yosh mutaxassislarni jalb qilish va sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Veterinariya, zootexnologiya, naslchilik, chorva mahsulotlarini qayta ishlash va agrotexnologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan yoshlarni fermer xo'jaliklaridagi amaliyot bilan bog'lash maqsadga muvofiq.

6. Buxoro viloyatida chorvachilikning kelgusi rivojlanish istiqbollari tarixiy tajriba asosida belgilash tavsiya etiladi. 1991–2026-yillar davomida yuz bergan o'zgarishlarni ilmiy tahlil qilish natijasida hududning tabiiy imkoniyatlari, ozuqa va suv resurslari, xo'jalik yuritish shakllari hamda bozor talabidan kelib chiqib, chorvachilikning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5017-sonli qaror, 2021-yil 3-mart
2. Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-121-sonli qaror, 2022-yil 8-fevral
3. O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan dastur. 08.02.2022
4. Qodirova Sarvinoz Sardor Qizi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida chorvachilik tarmog'ining o'ri, muammolar va ularning yechimlari, 2025-yil aprel
5. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining ma'lumotnomasi
6. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotnomasi
7. O'zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari, - Toshkent, Nasaf. 2010
8. Sh.Axmedov. O'zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish tarixi (1991 -2022) yillar, avtoreferat, Toshkent, 2024.